

DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAHLIL QILISH

Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2-bosqich magistranti*

Davlat tashqi qarziga xizmat ko'rsatishni minimallashtirish uchun joylashtirilgan qarz majburiyatlarining nominal miqdori va ularni joylashtirish xarajatlari o'rtasidagi foiz nisbatini qonuniylashtirish maqsadga muvofiqdir, bu moliyaviy maslahatchilar, anderrayterlar va to'lov agentlari uchun katta miqdordagi pul mukofoti uchun to'siq bo'ladi. Davlat qarzlarini boshqarishdagi muhim jihatlardan biri qarz Davlat qarzlarini boshqarishdagi muhim jihatlardan biri qarz xatarini boshqarishdir. Bugungi kunda turli xil xatarlarning salbiy ta'sirini zararsizlantirish va minimallashtirish yo'llarini izlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Turli xil qarz hatarlari orasida makro va makro darajadagi xatarlarning ta'sirini minimallashtirishga alohida e'tibor berilishi kerak. Agar hukumat muvofiqlashtirilgan, izchil va samarali pul-kredit, byudjet, qarz va soliq-byudjet siyosatini olib boradigan bo'lsa, makro darajadagi xatarlarning salbiy ta'siridan qochish mumkin. Shu bilan birga, davlat qarzlarini boshqarishda asosiy e'tibor mikro darajadagi xatarlarni aniqlashga va ularni minimallashtirishga qaratilishi kerak: bozor xavfi, kredit xavfi, likvidlik xavfi, yuridik va operatsion xatarlar.

Davlat qarzini o'z vaqtida to'lamaslik xatarlari mavjud bo'lgan taqdirda, qarzdor tashkilotlarga (tashabbuskor vazirlik va idoralarga) alohida g'azna hisobvaraqlarini ochish hamda zarur mablag'larni kelishilgan grafik asosida g'azna hisobvaraqlariga o'tkazish orqali oldindan jamlab borish tizimini yo'lga qo'yish; hamda tashqi qarz to'lov majburiyatlarini o'z muddatida to'lamayotgan tashkilotlar ro'yhatini shakllantirish hamda ular tomonidan mazkur qarzdorlik so'ndirilgunga qadar yangi davlat qarzi mablag'larini jalb qilishga yo'l qo'ymaslik zarur hisoblanadi.

Mamlakatdagi iqtisodiy muvozanatni hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat tashqi qarzini samarali boshqarish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzi umuman davlat qarzi holati turli



xalqaro reyting agentliklari tomonidan barqaror holatda ekanligi baholanib kelinayotgan bo'lsa-da, uning dinamik ko'rsatkichlari yildan yilga o'sib borayotgani hisobga olinib, mamlakat iqtisodiyoti uchun xavfsiz chegaradan (mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 60 foiz) o'tib ketmasligini ta'minlash muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda, davlat tashqi qarzini kelajakda qiymat yaratigan sohalarga yo'naltirish, qat'iy belgilangan strategiya orqali davlat tashqi qarzini boshqarish, tashqi qarzlarni monitoring qilishning samarali tizimini yaratish hamda asosiy qarz va unga xizmat ko'rsatish to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzi umuman davlat qarzi holati turli xalqaro reyting agentliklari tomonidan barqaror holatda ekanligi baholanib kelinayotgan bo'lsa-da, uning dinamik ko'rsatkichlari yildan yilga o'sib borayotgani hisobga olinib, mamlakat iqtisodiyoti uchun xavfsiz chegaradan (mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 60 foiz) o'tib ketmasligini ta'minlash muhim masalalardan hisoblanadi. Ammo, davlat tashqi qarzini qaytarish bilan bog'liq istiqboldagi murakkabliklarni bir necha holatlar bilan bog'lashimiz mumkin bo'ladi:

- so'nggi yillarda mamlakatimizda YalMga nisbatan davlat daromadlari (soliq yuki) pasayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda;

- tashqi qarzda davlatning ulushi yuqori darajada bo'lib kelayotgani;

- savdo balansi salbiy qoldig'i bilan tashqi qarz oshishi parallel ravishda yuzaga kelmoqda.

Olib borilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

Birinchi, davlat tashqi qarzini boshqarish tizimining oqilona olib borilishi natijasida qarzning moliyaviy yukini teng taqsimlashga yoki iqtisodiy adolatga erishish mumkin;

Ikkinchi, davlat tashqi qarzining mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum davlat dasturi va ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun jalb etilishi joriy iste'molni ta'minlashi hamda kelajakda iqtisodiy o'sishga sharoit yaratib berishi mumkin. shu sababli ham davlat tashqi qarzini jalb etish mamlakat iqtisodiyoti uchun to'liq xavf deb qarash zamonaviy iqtisodiyotning bir bo'lagi bo'la olmaydi.

Biroq, ohirgi yillarda mamlakatimizda byudjet defitsitining vujudga kelishi qator omillar bilan bog'liq bo'lib, ular: davlat



byudjeti daromadlarining ma'lum doirasi bekor qilinishi, davlat dasturlarining keng ko'lamli tarzda amalga oshirilayotganligi hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning xarajatlari ham byudjet mablag'lari hisobidan joriy etilish tizimi davlat byudjetiga moliyaviy yukning ortishiga muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida, byudjet defitsitini yuzaga keltirib, davlatning tashqi qarzlardan foydalanishiga zarurat tug'dirishi xorij tajribasidan ma'lum.

O'zbekistonda davlat qarzi tarkibida sezilarli buzilishlar mavjud. Bu shuni anglatadiki, barcha davlat qarzlarining qariyb 90 foizi tashqi tomondan jalb qilinadi va davlat zarur moliyaviy mablag'larning atigi 10 foizini ichki moliya bozoridan oladi. Yaqin kelajakda tashqi manbalardan ichki manbalarga yo'naltirish O'zbekistonning qarzi siyosatining ustuvor maqsadiga aylanishi kerak, bu esa eng tezkor islohot va davlat qimmatli qog'ozlarining ichki bozorini rivojlantirishni talab qiladi.

Bizningcha davlat tashqi qarzlarini boshqarishda quyidagi takliflar amalda qo'llanilsa, samarali natijalarga erishish mumkin bo'ladi:

Birinchi, davlat kafolati ostidagi tashqi qarz jalb etishning hozirgi tendensiyasi, ya'ni xususiy sektorga beriladigan davlat kafolatlarida qat'iy me'yorlarni belgilash hamda unga amal qilish;

Ikkinchi, tashqi qarzda davlat ulushini kamaytirish. Bunga kelajakda davlat ulushi bo'lgan korxonalarini xususiy sektorga sotish orqali erishish mumkin bo'ladi, shu bilan birgalikda tashqi qarz mablag'larini vaqtida to'lamaslik xatarlari mavjud bo'lgan taqdirda, qarzdor tashkilotlarga alohida g'azna hisobvaraqlarini ochish orqali zarur mablag'larini ma'lum grafik asosida g'azna hisobvaraqlariag o'tkazib borish orqali oldindan tashqi qarz bo'yicha asosiy to'lov hamda foiz to'lovlarini jamlab borish;

Uchinchi, mamlakat savdo balansida ijobiy qoldiqqa ega bo'lishiga erishish orqali tashqi qarzni arzon valyutalar orqali qaytarish imkoniyatiga erishish;

To'rtinchi, tashqi qarzning valyutalar tarkibi o'zaro nisbatini mamlakat oltin-valyuta zaxirasidagi valyutalar nisbati bilan uyg'unlashtirish;

Beshinchi, davlat tashqi qarzini boshqarishning har tomonlama mamlakat moliyaviy xavfsizligi hisobga olingan uzoq



muddatli strategiyasini ishlab chiqish hamda qarz olish bilan bog'liq risk va xatarlar o'rtasidagi bog'liqlikni bashorat qilish mexanizmlarini avtomatlashtirish;

Oltinchidan, davlat tashqi qarzlari bo'yicha to'lovlarni O'zbekistonning real imkoniyatlariga moslashtirish, qarz mablag'laridan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida qarz jalb qilingan asosiy kreditorlarga O'zbekistonga bo'lgan qarzдорlikni qayta tuzish taklifi bilan murojaat qilish;

Yettinchidan, mamlakatda amalga oshiriladigan qarz siyosati bilan bog'liq huquqiy baza muammolarini hal qilish hamda davlat tashqi qarzi siyosati bilan bog'liq keng qamrovli huquqiy asosni shakllantirish.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qat'iy ravishda bir moliya yili uchun davlat tashqi qarzi summasini belgilash to'liq makroiqtisodiy barqarorlikka imkon bermasligi mumkin. Fikrimizcha, yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat tashqi qarzini jalb qilish miqdori belgilanishi iqtisodiy pasayish davrida tashqi qarzning miqdorini ham uyg'un ravishda pasayishiga olib keladi. Ikkinchidan, ushbu usulning amaliyotga joriy etilishi mamlakatdagi iqtisodiy o'sish kutilganidan ham yuqoriroq bo'lgan taqdirda, davlat tashqi qarzini jalb qilinish miqdorini ham oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN, 2347-4378.

2. Shernaev, A. A. (2021). Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Студенческий вестник, (20-14), 74-76.

3. Шернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.



4. Shernaev, A. A. (2021). Sog 'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish masalalari. *Интернаука*, (20-7), 58-60.

5. Шернаев, А. А. (2020). Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах. *Интернаука*, (12-2), 43-45.

